O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI YURIDIK FANLAR BO‘YICHA ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.20/2025.27.12.Yu.03.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

BERDIYEV SURUR KAXRAMONOVICH

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILAYOTGAN PORAXO‘RLIKKA QARSHI KURASHISHNING JINOIY-HUQUQIY CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 343.352.4:004(575.1)

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по юридическим наукам

Contents of the abstract of the dissertation for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences

Berdiyev Surur Kaxramonovich
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlikka qarshi kurashishning jinoiy-huquqiy choralarini takomillashtirish…..... 3

Бердиев Сурур Кахраманович
Совершенствование уголовно-правовых мер противодействия взяточничеству, совершаемому с использованием информационно-коммуникационных технологий…… 25

Berdiyev Surur Kaxramonovich
Improvement of Criminal Law Measures to Combat Bribery Committed through the Use of Information and Communication Technologies..... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……. 56

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI YURIDIK FANLAR BO‘YICHA ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.20/2025.27.12.Yu.03.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOT INSTITUTI

BERDIYEV SURUR KAXRAMONOVICH

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILAYOTGAN PORAXO‘RLIKKA QARSHI KURASHISHNING JINOIY-HUQUQIY CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi
Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2025.3.PhD/Yu2057 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) «ZiyoNet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyoNet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rasulev Abdulaziz Karimovich** yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Lyudmila Yurevna Yugay** yuridik fanlar doktori, dotsent
	Otajonov Abrorjon Anvarovich yuridik fanlar doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.20/2025.27.12.Yu.03.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 25-noyabr kuni soat 16-30.dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahar, M. Ulug‘bek tumani, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 243-uy. Tel.: (+998971) 231-64-15, info@uzkti.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (79 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahar, M. Ulug‘bek tumani, Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 243-uy. Tel.: (+99871) 231-64-15)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 10-noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil 12-oktabr kunidagi 5-raqamli reestr bayonnomasi)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KRIMINOLOGIYA TADQIQOTLARI INSTITUTI

A. I. Toshpulatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, dotsent

S.A. Nurumbetova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

A. G. Zakirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISh (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va global jarayonlarga chuqur singib borishi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birga jinoyatchilik qiyofasini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat qulaylik yaratish vositasi, balki kiberjinoyatlarni sodir etish imkoniyatlarini kengaytiruvchi omilga ham aylanmoqda. Bu borada poraxo‘rlik jinoyatlarining kibermakonda sodir etilishi shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uchun jiddiy tahdid tug‘dirmoqda. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2023-yilda har 39 soniyada, 2024-yilda har 14 soniyada (boshqa manbada har soniyada) bitta kiberhujum sodir etilib, buning oqibatida 2025-yilda 10,5 trln. dollar, 2026-yilda 20 trln. dollar, 2027-yilda 22 trln. dollar, 2028-yilda 24 trln. dollar va 2029-yilda 26 trln. dollar zarar yetkazilishi taxmin qilingan bo‘lsa, birgina har yilgi poraxo‘rlik jinoyatlarining dunyo iqtisodiyotiga keltirayotgan zarari esa, 2,6 trln. dollar bo‘lib, dunyo davlatlari YaIMning 5%ni tashkil etayotgani ushbu sohada keskin va murosasiz islohotlarni amalga oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

Jahonda kiberjinoyatlarning poraxo‘rlik qilmishlari bilan uyg‘unlashib borayotgani, normativ-huquqiy hujjatlarning tor doiradagi shaxslar manfaatini ko‘zlab qabul qilinishi hamda poraxo‘rlikning zamonaviy va yashirin tus olayotgani oqibatida davlat organlari va tashkilotlariga nisbatan jamiyatda ishonchsizlik kuchaymoqda. Natijada, latent jinoyatlar ulushi ortib, raqobatbardosh bozor iqtisodiyotining rivojlanishi sekinlashmoqda, shaxs va davlat manfaatlariga putur yetib, inflyatsiya hamda iqtisodiy inqiroz xavfi kuchaymoqda. Shu sababli, dunyo hamjamiyati xalqaro hujjatlar hamda ikki va ko‘p tomonlama bitimlar asosida ushbu illatga qarshi birgalikda kurashish va mavjud muammolarga tizimli yechim topishga intilmoqda.

Respublikamizda norma ijodkorligi imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda qonun ustuvorligini ta’minlash, halol raqobatga asoslangan shaffof bozor iqtisodiyotini rivojlantirish hamda korrupsiyadan xoli bo‘lgan demokratik davlat barpo etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda 600 ga yaqin qonunchilik hujjatlari qabul qilinib, jamiyatda, ayniqsa davlat xizmatchilari orasida «halollik vaksinasi»ni joriy etish bo‘yicha tizimli ishlar yo‘lga qo‘yildi. Bu borada maxsus qonunlar qabul qilinib, ixtisoslashtirilgan tuzilmalar faoliyati tashkil etildi hamda poraxo‘rlikning oldini olish mexanizmlari yaratildi. Biroq, ushbu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlariga qarshi kurashish masalasi yetarlicha qamrab olingan deb bo‘lmaydi. Negaki, Internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron to‘lov vositalari, axborot tizimlari va boshqa telekommunikatsiya infratuzilmalari orqali sodir etiladigan poraxo‘rlik jinoyatlarining ortib borayotganiga qaramay, ushbu qilmishlar bo‘yicha jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash mexanizmi to‘liq shakllanmagan. E’tiborli jihati shundaki, 2019-2024-yillarda «pora olish» jinoyati (Jinoyat kodeksining 210-moddasi) 52,8 barobarga, «pora berish» jinoyati (Jinoyat kodeksining 211-moddasi) esa 43,6 barobarga oshgan. Birgina 2024-yilda pora olish jinoyatining 7 ta holatida pora

predmeti elektron to‘lov vositasi orqali amalga oshirilgan bo‘lsa-da, kriptoaktivlar bilan bog‘liq jarayonlarning murakkabligi va isbotlash vaqt talab etgani hamda ushbu holat qilmishni tavsiflash va jazoni qo‘llashga amalda ta’sir ko‘rsatmasligi sababli lozim darajada tergov harakatlari o‘tkazilmagan. Shuningdek, poraxo‘rlik jinoyatlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etish holatlari 2025-yilda 30 ta, 2026-yilning shu kuniga qadar esa, 25 ta ekanligi, korrupsiyaga oid jinoyatlar soni 2025-yilda jami 762 tani, 2026-yil shu kuniga qadar esa, 467 tani tashkil etayotganligi orqali yarim yillik ko‘rsatkichlar solishtirilganda, korrupsiyaga oid umumiy jinoyatlar soni qariyb 22,6 foizga oshganligiga, yarim yillik ko‘rsatkichlar asosida, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan poraxo‘rlik jinoyatlari keskin ravishda 66,7 foizga ko‘tarilganligini ko‘rish mumkin. Bu jinoyatlar yarim yil ichida bu qadar ko‘payib ketganligi, jadallik bilan rivojlanayotganligi bu borada davlat tomonidan jazoning muqarrarligi prinsipini ta’minlash choralarini ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun jinoyat-huquqiy choralarni takomillashtirish zaruratini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (1994-yil), «Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi (2017-yil), «Kiberxavfsizlik to‘g‘risida»gi (2022-yil) qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (2025-yil), «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2018-yil), «Axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (2025-yil), «Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini yanada kengaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi (2025-yil) farmon va qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq ba’zi masalalar u yoki bu darajada o‘rganilganligini ta’kidlash lozim. Chunonchi:

milliy olimlardan A. Allanov, A. Anorboyev, A. Ibodov, A. Otajanov, A. Rasulev, B. Axrarov, B. Berdialiyev, B. Ismailov, F. Xudaykulov, F. Yusupov, I. Abduhoshimov, J. Mirzayev, J. Umarov, L. Yugay, M. Ahmedov, M. Rustamboyev, R. Kabulov, R. Xojiyeva, R. Zufarov, S. Boydedayev, S. Ergashev, S. Niyozova, S. Gordeyev, V. Sunnatov, X. Abzalova, Y. Kolenko, Y. Ollamov va boshqalar;

MDH mamlakatlaridagi olimlardan A. Balayev, A. Dasayeva, A. Gadjiyeva, A. Koval, A. Kvitsinia, A. Omarov, A. Rarog, A. Vasilchenko, B. Boysov, B. Komarov, B. Sidirov, B. Voljenkin, I. Klepiskiy, M. Lepixin, N. Golubyx, O. Bezrukova, O. Kachmazov, P. Nikonov, P. Yani, R. Sharapov, V. Kirichenko, V. Melnikova, V. Rovneyko va boshqalar;

xorijiy olimlardan B. Klievink, D. S. Wall, I. Carr, K. Werbach, M. L. Feteris, M. Levi, M. Pieth, M. C. Stephenson, N. Christin, O. Kerr, P. De Filippi, P. Gottschalk, P. Grabosky, R. Anderson, R. Grey, R. Klitgaard, S. W. Brenner, S. Meiklejohn, S. Rose-Ackerman, S. C. Zyglidopoulos, U. Sieber va boshqa olimlar tadqiqot olib borishgan[1].

Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining zamonaviy imkoniyatlari hamda mazkur texnologiyalar vositasida sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, huquqiy va ilmiy jihatdan kompleks tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Korrupsiyaga qarshi kurashishni ilmiy-amaliy tadqiq qilish» mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlikka qarshi kurashishning jinoiy-huquqiy choralarini takomillashtirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining nazariy-huquqiy tahlilini amalga oshirish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining yuridik tavsifini ishlab chiqish;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun jazo tayinlash va ularning profilaktikasini takomillashtirish istiqbollarini ko‘rsatib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik uchun jinoyat-huquqiy choralarni qo‘llash bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik uchun jinoyat-huquqiy choralarni qo‘llashga oid milliy hamda ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi va amaliyoti, yuridik fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, tarixiylik, anketa so‘rovi, empirik materiallar va statistik

[1] Olimlarning ilmiy ishlari tadqiqotning foydalanilgan adabiyotlar qismida ko‘rsatilgan.

ma’lumotlar tahlili, kuzatuv, tizimli yondashuv, mantiqiylik kabi tadqiqot usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga oid jinoyatlarni yagona mezonlar asosida tizimlashtirish va huquqni qo‘llash amaliyotidagi turlicha talqinlarni bartaraf etish zaruratidan kelib chiqib, jinoyat qonunchiligiga “korrupsiyaga oid jinoyatlar” tushunchasini kiritish, shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarning yangi shakllariga samarali qarshi kurashish maqsadida alohida qonun qabul qilish zarurligi asoslantirilgan;

aholi va tadbirkorlik subyektlariga Yagona portal orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatishda ortiqcha byurokratik to‘siqlar, murakkablashgan tartibotlar va eskirgan yondashuvlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy omillarning oldini olish maqsadida jismoniy shaxsning Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsga doir ma’lumotlarini ularning qog‘oz shakliga tenglashtirish, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan Yagona portalning mobil ilovasi orqali olingan shaxsga doir ma’lumotlarning qog‘oz shaklini talab qilishni taqiqlash, jismoniy shaxslarni yagona identifikatsiya tizimidan (OneID) ro‘yxatdan o‘tkazishda muqobil tarzda shaxsni biometrik identifikatsiya qilish (Face ID) tartiblarini amaliyotga joriy etish zarurati asoslantirilgan;

biznesni boshlash jarayonida ortiqcha ma’muriy bosqichlar va mansabdor shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni kamaytirish zaruratidan kelib chiqib, davlat xizmatlarini kompleks tarzda ko‘rsatish, shuningdek litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish orqali korrupsiyaviy omillarning oldini olish mumkinligi asoslantirilgan;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan poraxo‘rlik jinoyatlarini barvaqt aniqlash va oldini olishni ta’minlash uchun prokuratura organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilish, ya’ni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan samarali raqamli nazoratni olib borish va uni raqamlashtirishga yo‘naltirilgan “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasini qabul qilish lozimligi asoslantirilgan;

davlat axborot tizimlari hamda resurslarini loyihalashtirish, yaratish va modernizatsiyalash sohasida korrupsiya illatiga barham berish, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish faoliyatini raqamlashtirishni yanada kengaytirish va raqamli nazorat tizimini yaratish hamda qonun ustuvorligini ta’minlash maqsadida texnik topshiriq va talablar ishlab chiqish jarayonini axborot tizimlari hamda resurslari orqali real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatini beruvchi «raqamli nazorat» funksiyasini joriy etish zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“poraxo‘rlik”, “axborot-kommunikatsiya texnologiyasi” va “axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyati” tushunchalariga nisbatan mualliflik ta’riflari ishlab chiqildi;

Pedagog, tadqiqotchi va amaliyotchilar «korrupsiya» va «poraxo‘rlik» tushunchalari haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish va ularni ajratib olishlari uchun o‘zaro farqlash jadvali ishlab chiqilgan;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining sodir etilish shakli, usuli, obyekti va subyekti bo‘yicha tasniflari ishlab chiqildi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlariga qarshi kurashish amaliyoti tahlili natijalariga asoslanib ushbu turdagi jinoyatlarni keltirib chiqarayotgan huquqiy va texnik omillarning taxminiy tizimi ishlab chiqilgan;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari obyektiv va subyektiv belgilari aniqlashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini takomillashtirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xorijiy tajriba va milliy qonun hujjatlarining o‘zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, tadqiqot davomida 60 ta savol bo‘yicha jami 12 336 ta ishtirokchi ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovnomalar bo‘yicha 10 741 nafar ishtirokchi berilgan takliflarni ma’qulladilar.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati shundaki, izlanishlar natijasida bildirilgan xulosa, taklif va tavsiyalar jinoyat huquqining nazariy bilimlarini boyitadi va yangi ilmiy tadqiqotlar olib borishga imkon yaratadi hamda undagi ilmiy-nazariy g‘oya va xulosalar O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining huquqiy mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalarni yanada chuqurroq o‘rganishda ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati norma ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash hamda ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda hamda oliy yuridik ta’lim muassasalarida «Jinoyat huquqi», «Jinoyat protsessi», «Fuqarolik huquqi», «Kibernetika», «Informatika», «Axborot huquqi», «Kiberxavfsizlik», «Kiberxavfsizlik asoslari», «Axborot xavfsizligi asoslari», «Kiberhuquq», «Raqamli huquq» fanlari o‘quv jarayonida ma’ruza va seminarlar o‘tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, Jinoyat va jinoyat-protsessual kodekslarini takomillashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilinib, berilgan takliflar norma ijodkorligi jarayonida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlikka qarshi kurashishning

jinoiy-huquqiy choralarini takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlar tizimini shakllantirish va qonunchilikka “korrupsiyaga oid jinoyatlar” tushunchasini kiritish bo‘yicha takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2026-yil 22-iyundagi O‘RQ–1155-son Qonuni 1-moddasi 13-bandini (Jinoyat kodeksi Sakkizinchi bo‘limiga kiritilgan qo‘shimcha)ni ishlab chiqishda foydalanilgan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish uchun alohida qonun qabul qilish zarurligiga oid takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining “Axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunini ishlab chiqishda foydalanilgan. Ushbu qonun 2026-yil 22-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga yuborilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2026-yil 11-avgustdagi №3/dn-161-son dalolatnomasi*). Ushbu takliflarning qabul qilinishi korrupsiyaga oid jinoyatlar tizimini va “korrupsiyaga oid jinoyatlar” tushunchasini qonunchilikda mustahkamlash, ushbu turdagi qilmishlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlash hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

aholi va tadbirkorlik subyektlariga Yagona portal orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatishda ortiqcha byurokratik to‘siqlar, murakkablashgan tartibotlar va eskirgan yondashuvlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy omillarning oldini olish, bu borada jismoniy shaxsning Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsga doir ma’lumotlarini ularning qog‘oz shakliga tenglashtirish, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan Yagona portalning mobil ilovasi orqali olingan shaxsga doir ma’lumotlarning qog‘oz shaklini talab qilishni taqiqlash, jismoniy shaxslarni yagona identifikatsiya tizimidan (OneID) ro‘yxatdan o‘tkazishda muqobil tarzda shaxsni biometrik identifikatsiya qilish (Face ID) tartiblarini amaliyotga joriy etishga doir taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takomillashtirish hamda sohada byurokratik tartibotlarni tubdan qisqartirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 8-sentabrdagi PF–157-son Farmonining 5-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan *(Adliya vazirligining 2025-yil 2-dekabrdagi 8/10-0018-son dalolatnomasi)*. Ushbu taklifning qabul qilinishi davlat boshqaruvida ortiqcha byurokratik to‘siqlar, murakkablashgan tartibotlar va eskirgan yondashuvlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy omillarning oldini olish hamda davlat xizmatlarini ko‘rsatishni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilgan;

biznesni boshlashda davlat xizmatlarini kompleks tarzda ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish orqali korrupsiyaviy omillarning oldini olish mumkinligiga oid taklifdan O‘zbekiston

Respublikasi Prezidentining “Biznes yuritishni hamda litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirishga doir navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-noyabrdagi PF–214-son Farmonining 2- va 5-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan *(Adliya vazirligining 2025-yil 2-dekabrdagi 8/10-0018-son dalolatnomasi)*. Ushbu taklifning qabul qilinishi biznesni boshlash istagida bo‘lgan tadbirkorlar uchun to‘siq sifatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korrupsiyaviy omillarning barvaqt oldi olinishiga xizmat qilgan;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan poraxo‘rlik jinoyatlarini barvaqt aniqlash va oldini olishni ta’minlash uchun prokuratura organlari faoliyatini raqamli transformatsiya qilish, ya’ni tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan samarali raqamli nazoratni olib borish va uni raqamlashtirishga yo‘naltirilgan “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasini qabul qilish zarurligiga doir taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 3-noyabrdagi PF–204-son Farmonining 1-5-bandlarini shakllantirishda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi 2026-yil 21-yanvardagi 5/10-26-son dalolatnoma)*. Ushbu taklifning inobatga olinishi “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasini tasdiqlanishiga hamda shu asosda bu borada bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimining belgilab olinishiga xizmat qilgan;

davlat axborot tizimlari hamda resurslarini loyihalashtirish, yaratish va modernizatsiyalash sohasida korrupsiya illatiga barham berish, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish faoliyatini raqamlashtirishni yanada kengaytirish va raqamli nazorat tizimini yaratish hamda qonun ustuvorligini ta’minlash maqsadida texnik topshiriq va talablar ishlab chiqish jarayonini axborot tizimlari hamda resurslari orqali real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatini beruvchi «raqamli nazorat» funksiyasini joriy etish to‘g‘risidagi taklifdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli prokuratura – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 3-noyabrdagi PF–204-son Farmonining 8-, 10- va 13-bandlarini shakllantirishda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi 2026-yil 21-yanvardagi 5/10-26-son dalolatnoma)*. Ushbu taklifning qabul qilinishi qonun ustuvorligini ta’minlash, korrupsiya illatiga barham berish, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish faoliyatini raqamlashtirish ishlarini yanada kengaytirish hamda raqamli nazorat tizimini joriy etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, OAKning dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 7 ta maqola, xorijiy konferensiyalarda 3 maqola va boshqa nashrlarda 6 ta maqola va tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 6 ta paragrafni qamrab olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (dissertatsiya annotatsiyasi) qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari hamda obyekt va predmeti asoslangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining nazariy-huquqiy tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi ikkita paragrafdan iborat bo‘lib, unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining nazariy-huquqiy tahlili va tasniflanishi, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy zarurati ochib berilgan.

Ushbu bobda muallif «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari» tushunchasini ishlab chiqib, uning nazariy-huquqiy tahlilini ko‘rsatib bergan. Shuningdek, muallif ushbu turdagi jinoyatlarning kiberkorrupsiya va kiberjinoyatlar bilan o‘zaro farqli va o‘xshash xususiyatlarini, ushbu turdagi jinoyatlarning tasniflanishini ochib bergan. Bunda jinoyatlarning sodir etilish shakli, usuli, vositalari bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar o‘zaro farqlanadi.

Shu bilan birga, tadqiqotchi ushbu bobda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy zarurati allaqachon vujudga kelganligini, huquqiy va amaliy jihatdan qonunchilikka tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy zaruratini ta’kidlab o‘tgan hamda ushbu zaruriyatni har tomonlama asoslab bergan.

Dissertatsiya birinchi bobining «*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining nazariy-huquqiy tahlili va tasniflanishi*» nomli birinchi paragrafida muallif *«poraxo‘rlik», «jinoyat»* va *«axborot-kommunikatsiya texnologiyalari»* tushunchalarining mazmun-mohiyatini ochib berib, bu orqali «*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari»* tushunchasini ishlab chiqqan.

Muallif fikriga asosan, *«axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyati – bu, kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda yoki undan foydalanib axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, shuningdek, ma’lum bir soha, tarmoq yoki yo‘nalishda pora evaziga mansabdor shaxs yoki*

xizmatchining o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi yoki mansabdor shaxs yoki xizmatchini pora evaziga shunday harakatlar sodir etishi uchun og‘dirib olishga qaratilgan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir».

Mazkur paragrafda AKTning jinoyat sodir etishdagi o‘rni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki porani taklif qilish, talab etish, kelishish, berish yoki olish jarayonlarini masofadan tashkil etishga xizmat qiluvchi texnologik muhit sifatida ko‘rib chiqilgan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron to‘lov tizimlari hamda kriptoaktivlardan foydalanish jinoyatning sodir etilish usuli va izlarini aniqlash tartibiga ta’sir qilishi asoslangan.

Tadqiqotda ushbu turdagi poraxo‘rlik sodir etilish shakliga ko‘ra aktiv va passiv ko‘rinishlarga, subyektiga ko‘ra esa, mansabdor shaxslar, davlat va boshqa tashkilotlar xizmatchilari, sport sohasi ishtirokchilari hamda boshqa jismoniy shaxslarning qilmishlariga ajratiladi. Tajovuz obyektiga ko‘ra boshqaruv tartibiga, tadbirkorlik faoliyati erkinligiga va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qonuniy manfaatlariga qarshi qaratilgan holatlar farqlangan. Bunda qilmishni faqat raqamli vosita mavjudligiga qarab emas, uning huquqiy belgilari asosida tasniflash kerakligi ta’kidlangan.

Shuningdek, «korrupsiya» va «poraxo‘rlik» tushunchalarining o‘zaro aloqasi hamda farqi ochib berilib, poraxo‘rlikning jinoyat-huquqiy xususiyatlari raqamli aloqa va elektron mulkiy manfaatlar bilan bog‘liq vaziyatlarda ham saqlanib qolishi ko‘rsatib berilgan. Mualliflik ta’rifida qilmishning aybliligi, ijtimoiy xavfliligi, mansab yoki xizmat mavqeidan foydalanish va qonunga xilof naf olish yoki taqdim etish kabi belgilar yagona tizimda aks ettirilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining *«Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy zarurati»* deb nomlangan ikkinchi paragrafida muallif axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun javobgarlik belgilashning 11 ta eng muhim ijtimoiy zaruriyatini sanab, uni huquqiy asoslantirib beradi. Mazkur masala raqamli vositalarning jinoyatni sodir etishdagi o‘rni va huquqiy javobgarlik asoslari bilan bog‘liq holda baholangan.

Dissertatsiyada mazkur ijtimoiy zaruratlar huquqiy, tashkiliy va texnologik omillarga ajratilgan. Jumladan, davlat organlarining fuqarolar oldidagi mas’uliyati, qonuniylik hamda javobgarlikning muqarrarligi prinsiplari raqamli shaklda sodir etilgan poraxo‘rlikka ham bir xil tatbiq etilishi qayd etilgan. Amaldagi normalarning raqamli usullar bilan sodir etilgan qilmishlarga qo‘llanishida yuzaga keladigan noaniqlik jinoyat tarkibini belgilash, tegishli organ vakolatini aniqlash va elektron dalillarni baholashda murakkablik tug‘dirishi asoslangan.

Javobgarlikni takomillashtirishning yana bir sababi poraxo‘rlikning yashirin shakllari kengayishi bilan bog‘liq. Elektron hamyonlar, masofaviy to‘lovlar, virtual aktivlar va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot jinoyat izlarini an’anaviy yo‘l bilan aniqlashni qiyinlashtiradi. Tadqiqotda 2019–2024-yillarda pora olish va pora berish

bilan bog‘liq qayd etilgan jinoyatlar dinamikasi, shuningdek elektron to‘lov vositalaridan foydalanilgan holatlar misolida raqamli omillarni hisobga olish zarurati tushuntirilgan. Bunday ko‘rsatkichlar mustaqil ravishda aybni isbotlamasligi, ammo qonunchilik va amaliyotga oid muammoning dolzarbligini ko‘rsatishi ta’kidlangan.

Paragrafda Jinoyat kodeksining qonuniylik, odillik va jazo tayinlashga oid qoidalarini raqamli jinoyatlar bilan uyg‘un talqin qilish masalasi ham ko‘tarilgan. Poraxo‘rlik va axborot texnologiyalari sohasidagi boshqa qilmishlar bir vaqtda sodir etilganda ularni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish, jinoyatlar majmui hamda jazoning mutanosibligini baholash alohida ilmiy muammo sifatida tavsiflangan. Davlat organlari, banklar va to‘lov tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik bu borada zarur institutsional shart deb ko‘rsatilgan.

Shu bilan birga, transchegaraviy raqamli munosabatlar va kriptoaktivlar bilan bog‘liq xavflar yuzasidan UNODC, GRECO hamda OECD yondashuvlari tahlil qilingan. Muallif bu yo‘nalishda xalqaro tajribani milliy huquq tizimiga moslashtirish, raqamli izlarni saqlash va tekshirishning tushunarli tartibini belgilash, jinoyat uchun javobgarlikning aniq chegaralarini mustahkamlashni taklif etadi. Mazkur omillarning yig‘indisi AKTdan foydalanib sodir etiladigan poraxo‘rlikka nisbatan jinoyat-huquqiy ta’sirni izchil takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Bu borada profilaktika, tergov va sud amaliyoti uchun izchil huquqiy mezonlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Dissertatsiyaning **«Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining yuridik tavsifi»** deb nomlangan ikkinchi bobida muallif axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining obyektiv va subyektiv belgilari tahlilini amalga oshirgan. Ushbu bobda jinoyat tarkibining obyektiv va subyektiv belgilarini aniqlash, elektron dalillarni baholash va qilmishni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish masalalari tahlil etilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi birinchi paragrafida «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining obyektiv belgilari tahlili» amalga oshirilgan. Unda jinoyat obyekti, tajovuz qilinayotgan ijtimoiy munosabatlar hamda qilmishning tashqi ifodasi o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilgan. Raqamli vositadan foydalanish poraxo‘rlikning asosiy bevosita obyektini avtomatik o‘zgartirmasligi, lekin qo‘shimcha ravishda axborot tizimlari va elektron ma’lumotlar xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkinligi asoslangan.

Tadqiqotda jinoyat obyektining umumiy, maxsus, turdosh va bevosita turlari farqlanib, pora olish, berish va vositachilik qilishda davlat boshqaruvining qonuniyligi, mansabdor shaxslar faoliyatining xolisligi va xizmat majburiyatlarini bajarish tartibi muhofaza qilinishi asoslangan. Tijorat tashkilotlari bilan bog‘liq poraxo‘rlikda tadbirkorlik munosabatlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qonuniy manfaatlari, sportdagi tegishli qilmishlarda esa, sport musobaqalarining halol tashkil etilishi bevosita obyekt sifatida baholangan. Axborot tizimlari xavfsizligi ayrim hollarda qo‘shimcha yoki fakultativ obyekt bo‘lishi mumkin.

Obyektiv tomon nuqtayi nazaridan Jinoyat kodeksining 192^9, 192^{10}, 210–214^2-moddalarida nazarda tutilgan qilmishlar taqqoslangan. AKT orqali porani so‘rash, va’da qilish, taklif etish, yuborish, qabul qilish yoki tomonlar o‘rtasidagi kelishuvga vositachilik qilish masofaviy muloqot, bank va elektron to‘lovlar, ijtimoiy tarmoq akkauntlari hamda boshqa raqamli kanallar orqali yuz berishi mumkinligi yoritilgan. Biroq har bir jinoyat tarkibi uchun qonunda belgilangan harakat, subyekt va boshqa zaruriy belgilar alohida aniqlanishi talab etiladi.

Elektron pul, bank o‘tkazmasi va kriptoaktivlardan foydalanganda pora predmetining mulkiy qiymatini aniqlash, tranzaksiya zanjirini tekshirish va pora olingan yoxud berilgan paytni belgilashdagi muammolar muhokama qilingan. Muallif raqamli aktivlarning o‘tkazilishi haqidagi ma’lumotni boshqa dalillar bilan birgalikda baholash, qilmishning tamom bo‘lish paytini faqat texnik yozuvga asoslanib emas, jinoyat-huquqiy mezonlarga muvofiq aniqlash lozimligini asoslaydi. Elektron dalillarni olish va tekshirish tartibi qilmishning to‘g‘ri kvalifikatsiyasi uchun muhim deb baholangan.

Poraxo‘rlikni kiberfiribgarlik, axborot tizimiga qonunga xilof kirish va boshqa axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlardan farqlash masalalari tadqiq etilgan. Farqlashda mulkiy manfaatning kimga va nima maqsadda berilgani, mansab yoki xizmat vakolatlari bilan bog‘liqlik, tomonlarning kelishuvi hamda qasdning yo‘nalishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu tariqa, paragrafda AKTdan foydalanish usuli ushbu turdagi jinoyatlarning obyektiv belgilari tarkibida o‘rganilishi maqsadga muvofiqligi, biroq buning uchun jinoyat qonunchiligida tegishli jinoiy javobgarlik belgilanishi ilgari surilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobiga tegishli «*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining subyektiv belgilari tahlili*» deb nomlanuvchi ikkinchi paragrafida tamagirlik va tovlamachilik jinoyatining farqi tushuntirilib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 210-moddasining ikkinchi qismi “v”-bandi “*tovlamachilik yo‘li bilan;”, – deb bayon etilishi zarurligi,* axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining subyekti *o‘n olti yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxslardir, bundan pora olish bilan bog‘liq jinoyatlar mustasno ekanligi,* axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan pora olish jinoyatining subyekti *o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxslar sanalishi, bu toifadagi* jinoyatlar subyektiv tomondan doimo qasddan sodir etilishi ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyada subyektni aniqlashda umumiy jinoiy javobgarlik yoshi va aqli rasolik bilan birga, muayyan poraxo‘rlik tarkibida nazarda tutilgan maxsus belgilar alohida tekshirilishi zarurligi asoslangan. Mansabdor shaxs, davlat yoki boshqa tashkilot xizmatchisi, vositachi va manfaatdor boshqa shaxslarning huquqiy maqomi bir xil emas. Raqamli akkaunt, telefon raqami yoki elektron hamyonning muayyan shaxsga tegishliligi uning jinoyat subyekti ekanini o‘z-o‘zidan tasdiqlamasligi, bu holatlar boshqa dalillar bilan bog‘lanishi lozimligi haqidagi yondashuv bayon qilingan.

Subyektiv tomon tahlilida qasdning mavjudligi, uning yo‘naltirilganligi, g‘arazli manfaat va xizmat vakolatlari bilan bog‘liqlik masalalari o‘rganilgan. Pora

olish yoki berish to‘g‘risidagi raqamli yozishmalar, elektron to‘lov topshiriqlari va boshqa izlar qasdni aniqlashda ahamiyatli bo‘lishi mumkin, ammo har bir axborot alohida va boshqa dalillar bilan birga baholanishi kerak. Texnologiyadan foydalanishning o‘zi poraxo‘rlik niyatini yoki shaxs aybini isbotlash uchun yetarli emasligi ko‘rsatib berilgan.

Muallif tamagirlikning mazmuni bilan tovlamachilik orqali pora talab qilish holatini farqlash yuzasidan nazariy mulohazalar bildirgan. Xususan, Jinoyat kodeksining 210-moddasi ikkinchi qismi «v» bandini «tovlamachilik yo‘li bilan» deb bayon etish taklifi ilgari surilgan. Shuningdek, raqamli muhitda jinoyat sodir etishda ishtirokchilik, vositachilik va manfaatdor tomonlarning haqiqiy rolini to‘g‘ri aniqlash zarurati ta’kidlangan. Yuridik shaxslarning javobgarligiga oid qarashlar esa amaldagi tartibdan alohida ilmiy taklif va muhokama predmeti sifatida ko‘rilgan.

Umuman, ikkinchi paragrafda raqamli poraxo‘rlikni kvalifikatsiya qilishda shaxsning huquqiy maqomi, maxsus subyekt belgilari, qasd va maqsadni kompleks baholash zarurligi ko‘rsatilgan. Bunda texnik ma’lumotlarni huquqiy dalillar bilan bog‘lash va ayb haqidagi asossiz xulosalarga yo‘l qo‘ymaslik muhimligi asoslangan.

Dissertatsiyaning **«Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun jazo tayinlash va ularning profilaktikasini takomillashtirish istiqbollari»** nomli uchinchi bobi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun jazo tayinlashni takomillashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari profilaktikasini takomillashtirish istiqbollariga bag‘ishlangan. Shuningdek, elektron shakldagi pora predmetini aniqlash, jazo tayinlashda ayb va qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasini baholash masalalari yoritilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobiga tegishli «*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun jazo tayinlashni takomillashtirish*» deb nomlanuvchi birinchi paragrafida tadqiqotchi jinoyat natijasida og‘ir oqibatlarning kelib chiqqanligi, jinoyatning umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida sodir etilgani, g‘arazli yoki boshqacha past niyatlarda sodir etilgani, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma tomonidan sodir etilgani, ilgari ham qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib jinoyat sodir etish a*xborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun jazo qo‘llashda quyidagilar og‘irlashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi zarurligini, shu munosabat bilan* O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 56-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirdagi «p» band bilan to‘ldirish lozimligini asoslab bergan:

«p) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib jinoyat sodir etish».

Shuningdek, paragrafda muallif O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 192^{9}-192^{10}, 210-214^{2}-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar uchun jarima, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash,

ozodlikdan mahrum qilish, qo‘shimcha jazo tariqasida, muayyan huquqdan mahrum etish jazosi qo‘llanilishini bayon qilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun jazo qo‘llashda jazolar tizimidan axloq tuzatish ishlari va majburiy jamoat ishlari jazolarini chiqarib tashlash zarurligini asoslab bergan.

Mazkur paragrafda jazo tayinlashda qonuniylik va individuallashtirish mezonlariga rioya qilish, raqamli vositaning haqiqiy jinoyat usulidagi o‘rnini aniqlash zarurligi ham qayd etilgan. Muallifning fikricha, AKTdan foydalanish holatini baholashda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning roli, zarar xususiyati, g‘arazli maqsad va jinoyat sodir etilgan sharoit e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Bunday omillarni aniq tekshirish raqamli shakldagi har qanday muloqotni avtomatik ravishda jazo og‘irlashtiruvchi holatga tenglashtirib yubormaslik uchun muhimdir.

Shuningdek, dissertatsiyada pora predmetining qiymatini elektron mablag‘lar, raqamli aktivlar va boshqa mulkiy manfaatlar misolida aniqlash muammolari tahlil etilgan. Jinoyat uchun jazo tanlashda pora miqdori, jinoyatning sodir etilish bosqichi, elektron tranzaksiyalarning huquqiy mazmuni va dalillarning ishonchliligi o‘zaro bog‘liq holda baholanishi lozimligi asoslangan. Muallif jazoning ogohlantiruvchi ta’sirini kuchaytirish, qo‘llaniladigan sanksiyalar tizimini qilmishning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiqlashtirish va raqamli shakldagi poraxo‘rlikka nisbatan yagona yondashuvni shakllantirishni taklif etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobidagi «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining profilaktikasini takomillashtirish istiqbollari» nomli ikkinchi paragrafda muallif ushbu jinoyatlarni barvaqt aniqlash, fosh etish va ularning oldini olish choralarini rivojlantirishga doir takliflarni asoslaydi. Xususan, jinoyatning qachon, qanday vosita va qurilma yordamida sodir etilganini aniqlash maqsadida axborot tizimlari, elektron platformalar hamda veb-saytlardagi raqamli izlarni saqlash, qayd etish va tekshirishning aniq tartibini belgilash zarurligi ta’kidlangan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kibermakonda sodir etilayotgan korrupsiyaga oid jinoyatlarga qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorini qabul qilish taklif etilgan. Shuningdek, ushbu qaror orqali Korrupsiyaga qarshi kurashishning 2030-yilgacha bo‘lgan strategiyasini tasdiqlash hamda sohada idoralararo hamkorlik va profilaktikani izchil amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash zarurligi asoslangan. Bu yondashuv raqamli jinoyatlarning latentligini kamaytirish va tekshirishning samarali mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan.

Paragrafda profilaktikaning huquqiy va texnik yo‘nalishlari uzviy bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi. Raqamli tizimlardagi huquqiy va tashkiliy bo‘shliqlarni aniqlash, elektron davlat xizmatlarida ortiqcha byurokratik bosqichlarni qisqartirish, mansabdor shaxs bilan bevosita muloqotni kamaytirish hamda jarayonlarni shaffoflashtirish korrupsiyaviy xavflarni pasaytirishning muhim vositalari sifatida baholangan. Davlat xizmatlarini kompleks ko‘rsatish, elektron ma’lumotlarni qog‘oz shaklidagi hujjatlarga tenglashtirish, OneID va biometrik identifikatsiya mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar shu yondashuv bilan bog‘liq.

Tadqiqotda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini raqamli transformatsiya qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov doirasida qonun ijrosini nazorat qilish jarayonlarini raqamlashtirishga yo‘naltirilgan «Raqamli prokuratura – 2030» strategiyasi, shuningdek axborot tizimlarini ishlab chiqish hamda modernizatsiya qilishda «raqamli nazorat» funksiyasini joriy etish zarurati asoslantirilgan. Bu takliflarning maqsadi davlat xaridlaridan tortib axborot resurslarini boshqarishgacha bo‘lgan jarayonlarda korrupsiyaviy omillarni erta aniqlashdan iborat.

Dissertatsiyada elektron ma’lumotlar transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lgani sababli raqamli dalillarni saqlash, so‘rab olish va tekshirish bo‘yicha idoralararo hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarurligi ham qayd etilgan. Jinoyat sodir etilgan vaqt, vosita, qurilma va elektron izlarning ketma-ketligini qayd qilish bo‘yicha aniq tartiblar tergovning samaradorligi va dalillarning tekshiriluvchanligini ta’minlashi mumkin. Shu tariqa, paragrafdagi takliflar faqat jazolashga emas, raqamli poraxo‘rlik xavfini barvaqt aniqlash, uning sabablarini bartaraf etish va profilaktika natijalarini izchil nazorat qilishga qaratilgan.

XULOSA

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining nazariy, ijtimoiy va jinoyat-huquqiy jihatlarini tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy xulosa, qonunchilikka taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Huquq nazariyasida mavjud bo‘lgan ilmiy g‘oya va qarashlar, xalqaro hamda milliy qonunchilik normalari va ularni qo‘llash amaliyoti natijalari tahlili asosida “poraxo‘rlik”, “axborot-kommunikatsiya texnologiyasi” va “axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyati” tushunchalariga nisbatan quyidagi mazmundagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi:

“poraxo‘rlik *– pora olish, pora berish, pora olish-berishda vositachilik qilish, shuningdek, ma’lum bir soha, tarmoq yoki yo‘nalishda pora evaziga mansabdor shaxs yoki xizmatchining o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi yoki mansabdor shaxs yoki xizmatchini pora evaziga shunday harakatlar sodir etishi uchun og‘dirib olishga qaratilgan Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan va jazo qo‘llash tahdidi bo‘lgan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)”;*

“axborot-kommunikatsiya texnologiyasi – *axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar, jarayonlar va texnologiyalar”;*

“axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyati *– kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda yoki undan foydalanib axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali pora olish, pora berish,*

pora olish-berishda vositachilik qilish, shuningdek, ma'lum bir soha, tarmoq yoki yo'nalishda pora evaziga mansabdor shaxs yoki xizmatchining o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi yoki mansabdor shaxs yoki xizmatchini pora evaziga shunday harakatlar sodir etishi uchun og'dirib olishga qaratilgan Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan va jazo qo'llash tahdidi bo'lgan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)".

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlarini nazariy-huquqiy jihatdan tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

1) kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda yoki undan foydalanib axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari *sodir etilish shakliga ko'ra quyidagicha tasniflanadi:*

a) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan *aktiv poraxo'rlik jinoyatlari;*

b) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan *passiv poraxo'rlik jinoyatlari.*

2) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari *sodir etilish usuliga ko'ra* har bir davlat jinoyat qonunchiligida turlicha tasniflanadi;

3) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari *subyektiga ko'ra* quyidagicha tasniflanadi:

a) davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsi tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari;

b) davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organining xizmatchisi tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari;

v) sport musobaqalari ishtirokchilari va tashkilotchilari tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari;

g) har qanday jismoniy shaxs tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari.

4) axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari *obyektiga ko'ra* quyidagicha tasniflanadi:

a) tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilishga qaratilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari;

b) qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq yoki xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga tajovuz qilishga qaratilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari;

v) boshqaruv tartibiga qarshi qaratilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo'rlik jinoyatlari.

3. Quyidagilar jinoyat qonunchiligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy zarurati hisoblanadi:

birinchisi, Davlat rahbarining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning yig‘ilishi (2025-yil 5-mart) hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 21-apreldagi PF–71-son Farmonida kiberkorrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mustahkam huquqiy bazani yaratish bo‘yicha topshiriqning mavjudligi;

ikkinchisi, O‘zbekiston qonunchiligida kibermuhitda, shu jumladan, kibermakonda va undan foydalanib yoki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilgan poraxo‘rlik jinoyatlarining chegarasi va javobgarlik doirasini aniq belgilash bilan bog‘liq “huquqiy bo‘shliq”ni bartaraf etishga nisbatan ehtiyojning mavjudligi;

uchinchisi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi hamda davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’ul ekanligining aks ettirilgani, shuningdek mazkur mas’uliyat davlat organlari va mansabdor shaxslardan poraxo‘rlikka qo‘l urmaslikni, ularni tiyib turish uchun esa jinoiy javobgarlikning muqarrarligini ta’minlashni taqozo etishi;

to‘rtinchisi, poraxo‘rlik jinoyatlari bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar o‘zaro farqlangani hamda qilmishlar umumiy qasd bilan qamrab olinganligi bois ularni jinoyatlar majmui sifatida noto‘g‘ri malakalash amaliyotiga chek qo‘yish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun alohida jinoiy javobgarlikni belgilash zaruratining borligi;

beshinchisi, insonparvarlik prinsipi nuqtai nazaridan adolatli jazo qo‘llanishini ta’minlash maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun alohida jinoiy javobgarlikni belgilash zarurati mavjudligi;

oltinchisi, keng ko‘lamli zararning oldini olish uchun ham jinoyat qonunchiligida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlash hamda to‘liq ijroga qaratish kerakligi;

yettinchisi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo‘rlik qilmishlarining aniq statistikasini yuritish;

sakkizinchisi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlashning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ–3723-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasi ijrosini ta’minlash bilan bog‘liqligi;

to‘qqizinchisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi PQ–153-son qarorida axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning belgilangani;

o‘ninchisi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun javobgarlikni belgilashda xalqaro hujjatlar, dunyo davlatlarining jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi hamda boshqa normativ hujjatlar talablarini inobatga olishning talab etilishi;

o‘n birinchisi, xalqaro konsepsiyalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali milliy jinoyat qonunchiligidagi “kiberkorrupsiya” tushunchasini nazariy jihatdan to‘liq shakllantirish va Davlat rahbari qo‘ygan vazifani bajarish zarurligi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining obyektiv va subyektiv belgilari tahlili natijalariga asoslanib, ushbu turdagi jinoyatlarining *umumiy, maxsus, turdosh va bevosita obyektlari*ning mohiyati ochib berildi.

5. Jinoyat huquqi nazariyasida yangi turdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining bevosita obyekti asosiy, qo‘shimcha va fakultativ obyektlar shaklida o‘rganish zaruratidan kelib chiqib ularga quyidagicha mualliflik ta’riflarini bergan.

Asosiy bevosita obyekti Jinoyat kodeksining 192^{9}–192^{10}, 210–214^{2}-moddalarida nazarda tutilgan harakatlar qaratilgan tajovuz obyektlari hisoblansa, “qo‘shimcha bevosita obyekti” axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tizimi va vositalari hamda ularning muhofazalanishi va xavfsiz rivojlanishiga oid ijtimoiy munosabatlar sanaladi. Biroq, “asosiy bevosita obyekti” qaratilgan poraxo‘rlik jinoyatlari turlicha usullarda sodir etilganiga qarab bu turdagi jinoyatlarning bevosita asosiy obyekti qaratilgan jinoyatlar turi ko‘payib borish ehtimoliga ega.

Fakultativ bevosita obyekti esa, asosiy va qo‘shimcha obyektga bog‘liq bo‘lgan va muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlar sanaladi. Misol uchun, jamoat xavfsizligi bo‘lishi mumkin.

6. Jinoyat kodeksining 192^{9}–192^{10}, 210–214^{2}-moddalarida nazarda tutilgan poraxo‘rlik jinoyatlarining asosiy bevosita obyektlari mazmun-mohiyati yoritib berildi.

II. Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan takliflar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga quyidagi mazmundagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish hamda dissertatsiya 12-ilovasiga muvofiq tahrirda O‘zbekiston Respublikasining Qonunini qabul qilish taklif qilinadi:

1) 56-modda birinchi qismini quyidagi tahrirdagi «p» band bilan to‘ldirish:

«p) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib jinoyat sodir etish»;

2) 192^{9}-192^{11}-, 205-206, 209-214^{2}-moddalarida nazarda tutilgan qilmishlar *axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib yoki qonunga xilof ravishda axborot-kommunikatsiya tizimiga kirib sodir etilgan taqdirda buning uchun alohida jinoiy javobgarlikni belgilash;*

3) O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining o‘zbek va rus tillaridagi matnlarini o‘zaro muvofiqlashtirish maqsadida mazkur Kodeks **210-moddasi**

ikkinchi qismining «v» bandi qoidalariga aniqlik kiritish orqali pora olish tamagirlik maqsadida sodir etilgan hollarda ushbu moddaning birinchi qismi, tovlamachilik yo‘li bilan sodir etilgan hollarda esa ikkinchi qismi bo‘yicha jinoiy javobgarlikni nazarda tutish*;*

4) 210-213-moddalarda poraxo‘rlik tufayli yetkazilgan moddiy zarar ikki hissa qoplanib, jinoyat fosh etilishiga ko‘maklashilgan taqdirda aybdorga ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazo qo‘llanilishini nazarda tutish orqali bu toifadagi jinoyatlarning tezkor fosh etilishi va oldini olish choralarini ko‘rish va jinoyat uchun jazo muqarrarligini ta’minlash.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “**Kibermakonda sodir etilayotgan korrupsiyaga oid jinoyatlarga qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi qarorini qabul qilish orqali tadqiqotda aniqlangan muammolar va ularning yechimlariga oid taklif va tavsiyalarni amalga oshirish hamda bu orqali O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlikka qarshi kurashishni yangi bosqichga olib chiqish.

III. O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlikka qarshi kurashish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Poraxo‘rlik ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida” 1999-yil 24-sentabrdagi 19-son qarorini yangi tahrirda qabul qilib, unda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlariga oid maxsus qoidalarni qo‘shish va shu orqali yagona huquqiy amaliyotni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarini malakalashda quyidagilarni yodda tutish zarur:

a) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarining subyekti *o‘n olti yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxslardir, bundan pora olish bilan bog‘liq jinoyatlar mustasno;*

b) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan pora olish jinoyatining subyekti *o‘n sakkiz yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxslar;*

v) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari subyektiv tomondan doimo qasddan sodir etiladi.

3. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun jazo qo‘llashda quyidagilar og‘irlashtiruvchi holat sifatida inobatga olinishi zarur:*

jinoyat natijasida og‘ir oqibatlarning kelib chiqqanligi;

jinoyatning umumiy ofat sharoitidan foydalangan holda yoki favqulodda holat vaqtida yoxud ommaviy tartibsizliklar jarayonida sodir etilgani;

g‘arazli yoki boshqacha past niyatlarda sodir etilgani;

bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda yoki uyushgan guruh yoxud jinoiy uyushma tomonidan sodir etilgani;

ilgari qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etishini.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonuniga “kiberjinoyat”, “kibermuhit” tushunchalarini va ularning amalga oshirish mexanizmi, kiberjinoyat turlari va mazmuni, bu boradagi vakolatli idoralarning vakolatlari, vazifa va funksiyalari, majburiyatlariga oid qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish orqali bu boradagi “huquqiy bo‘shliq”ni bartaraf etish kerak.

5. Poraxo‘rlikning oldini olish maqsadida davlat organlari va tashkilotlari hamda xizmatchilarining aniq vazifalari va funksiyalari reestrini yaratish, davlat xizmatchilariga kriptoaktivlar va mayning bilan shug‘ullanish yoki kriptoaktiv egasi bo‘lishi taqiqlash va bu bo‘yicha ularning jinoiy javobgarligi belgilash, aniqlangan holatlar davlat xizmatchisining jinoiy daromadlarini legallashtirish deb baholanadigan tizim joriy qilish zarur.

6. Poraxo‘rlik jinoyatlarining fosh etilishi uchun davlat xizmatchilari kibermakonda huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymasligi uchun davlat axborot tizimlari va resurslarining raqamli izlarini loglash, ularni saqlash va avtomatik hisobini yuritish tizimini yo‘lga qo‘yish, bankomatlarda shaxsni biometrik to‘liq identifikatsiya qilish va ma’lumotlarni real vaqt rejimida davlat axborot tizimlariga yuborish imkoniyatini beruvchi videoyozuv vositalari bo‘lgandagina ularni o‘rnatishga ruxsat berishni yo‘lga qo‘yish va mavjudlarini bosqichma-bosqich yangi mezonlarga mos keluvchi bankomatlarga almashtirish kerak.

7. Poraxo‘rlik jinoyatlarini minimal darajaga olib tushirish va ularning oldini olish uchun davlat xizmatchilarining huquqiy va raqamli savodxonligini ta’minlash bo‘yicha majburiy o‘quv kurslari va attestatsiyadan o‘tish mexanizmini joriy qilish lozim.

8. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlari uchun jazo qo‘llashda jazolar tizimidan axloq tuzatish ishlari va majburiy jamoat ishlari jazolarini chiqarib tashlash, sun’iy intellekt orqali shu kunga qadar ko‘rib chiqilgan huquqbuzarlik va jinoyat ishlari qayta ko‘rib chiqilib, qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan mas’ullarning jinoiy javobgarligi va ishlarning keyingi taqdiri masalasi nazorat tartibida hal qilish va sun’iy intellekt natijasi bilan ko‘rilgan chora-tadbirlarning amaliy yechimlarini keng jamoatchilik real vaqt rejimida ko‘rib turish imkoniyatini yaratish zarur.

9. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan poraxo‘rlik jinoyatlarini aniqlash, jinoyatchini fosh etish, jinoyatning qachon, qaysi qurilma orqali va qaysi usullar orqali sodir etilganligini axborot-kommunikatsiya tizimlari va veb-saytlardagi raqamli izlarni saqlash va uning hisobini yuritish tartibini belgilash orqali amalga oshirish mumkin, “Sirli mijoz” amaliyotini yo‘lga qo‘yib, davlat xizmatlari va boshqa sohalarda bo‘layotgan korrupsiyaviy holatlarni majburiy va oshkora bartaraf qilish tizimini joriy qilish lozim.

10. Yer ajratish va qurilishga ruxsat berishda eng korrupsiyalashgan sohalardan biri kadastr va mulk huquqiga oid soha bo‘lganligi sababli bu borada barcha ma’lumotlarni blokcheyn tizimiga o‘tkazish, bu ma’lumotlarni soxtalashtirish yoki orqa sana bilan o‘zgartirish imkoniyatini butunlay yo‘q qilish maqsadida “Blokcheyn-kadastr” tizimini joriy etish, davlat xaridlari, tenderlar va

auksionlardagi barcha ma’lumotlarni (ishtirokchilar, narxlar, muddatlar) sun’iy intellekt orqali tahlil qilishni to‘liq yo‘lga qo‘yib, agar tizim shubhali bog‘liqliklarni aniqlasa, u avtomatik ravishda “xavf bayroqchasi”ni ko‘tarib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga avtomatik xabar yuborish tizimini ishga tushirish lozim.

11. Har bir davlat xizmati bo‘yicha davlat xizmatini olgandan so‘ng fuqarolarga majburiy ravishda xizmat sifatini 5 ballik tizimda baholanishini yo‘lga qo‘yish va korrupsiyaga duch kelgan-kelmaganligi haqida anonim belgi qo‘yish imkoniyatini berish, bu borada past reyting ko‘rsatkichiga ega idoralar yoki xodimlarni avtomatik ravishda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda boshqa manfaatdor idoralar tomonidan korrupsiyaga nisbatan barqarorligini majburiy ravishda tekshirish, “Halollik vaksinasi”ni to‘liq amalda joriy etish maqsadida maktabgacha ta’lim va maktab bosqichida har xil majburiy o‘yinlar, videoroliklar, o‘quv dasturlari va kurslar joriy qilish va natijasini onlayn translyatsiya qilib borish zarur.

12. Har bir sport tadbirlari, madaniyat obidalarini restavratsiya qilish bilan bog‘liq har bir moliyaviy jarayonlar va pul mablag‘larining to‘liq va real oqimi sun’iy intellekt va “aqlli tizim”larga asoslangan maxsus portalda ko‘rinib turish imkoniyatini yaratish zarur.

13. Poraxo‘rlikka qarshi tizimli kurashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining qisqa, o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha konsepsiya va strategiyalarini ishlab chiqish va ijrosini ta’minlash zarur.

Mazkur xulosalarimiz tadqiqot ishida asoslantirilgan bo‘lib, ushbu takliflarning qabul qilinishi poraxo‘rlik jinoyatlarining oldi olinishiga, kiberkorrupsiyaviy munosabatlar minimallashtirilishiga, ushbu sohada tizimli ishlar amalga oshirilib, olib borilayotgan islohotlar yangi bosqichga ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.20/2025.27.12.Yu.03.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПО ЮРИДИЧЕСКИМ НАУКАМ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ КРИМИНОЛОГИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ КРИМИНОЛОГИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

БЕРДИЕВ СУРУР КАХРАМОНОВИЧ

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УГОЛОВНО-ПРАВОВЫХ МЕР ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ВЗЯТОЧНИЧЕСТВУ, СОВЕРШАЕМОМУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

12.00.08 – Уголовное право. Уголовно-исполнительное право
Автореферат

диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD)

Ташкент – 2026

Тема диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD) по юридическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за номером V2025.3.PhD/Yu2057.

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте криминологии Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещён на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте информационно-образовательного портала «ZiyoNET» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Расулев Абдулазиз Каримович,** доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Югай Людмила Юрьевна** доктор юридических наук, доцент
	Отажонов Аброржон Анварович доктор юридических наук, профессор
Ведущая организация:	**Академия правосудия Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «25» ноября 2026 года в 16:30 на заседании Научного совета DSc.20/2025.27.12.Yu.03.01 по присуждению учёных степеней при Научно-исследовательском институте криминологии Республики Узбекистан. (Адрес: 100170, г. Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, ул. Буюк Ипак йўли, дом 243. Тел.: (+99871) 231-64-15); info@uzkti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института криминологии Республики Узбекистан (зарегистрирована под № 79). (Адрес: 100170, г. Ташкент, Мирзo-Улугбекский район, ул. Буюк Ипак йўли, дом 243. Тел.: (+99871) 231-64-15).

Автореферат диссертации разослан «10» ноября 2026 года.

(Реестр протокола рассылки №5 от «12» октября 2026 года)

А. И. Тошпулатов
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, доцент

С. А. Нурумбетова
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, доцент

А. Г. Закирова
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации на соискание учёной степени доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире стремительное развитие информационно-коммуникационных технологий и их глубокое проникновение в глобальные процессы коренным образом изменяют наряду с социально-экономическими отношениями и облик преступности. В настоящее время информационно-коммуникационные технологии становятся не только средством создания удобства, но и фактором, расширяющим возможности совершения киберпреступлений. В этой связи совершение преступлений, связанных со взяточничеством, с использованием информационно-коммуникационных технологий создаёт серьёзную угрозу интересам личности, общества и государства. Согласно статистическим данным, в 2023 году одна кибератака совершалась каждые 39 секунд, в 2024 году – каждые 14 секунд[1] (по другим источникам – каждую секунду[2]), вследствие чего прогнозировалось причинение ущерба в размере 10,5 трлн долларов США в 2025 году[3], 20 трлн долларов США – в 2026 году, 22 трлн долларов США – в 2027 году, 24 трлн долларов США – в 2028 году и 26 трлн долларов США – в 2029 году[4], тогда как ежегодный ущерб, причиняемый мировой экономике только преступлениями, связанными со взяточничеством, составляет 2,6 трлн долларов США, что соответствует 5 % мирового валового внутреннего продукта[5] и свидетельствует о необходимости осуществления в данной сфере решительных и бескомпромиссных реформ.

В мире интеграция киберпреступности с деяниями, связанными со взяточничеством, принятие нормативных правовых актов в интересах узкого круга лиц, а также взяточничество приобретает современные и скрытые формы усиливают недоверие общества к государственным органам и организациям. В результате возрастает доля латентной преступности, замедляется развитие конкурентоспособной рыночной экономики, причиняется ущерб интересам личности и государства, а также усиливается риск инфляции и экономического кризиса. В связи с этим мировое сообщество стремится к совместному противодействию данному негативному явлению и выработке системных решений существующих проблем на основе международных документов, а также двусторонних и многосторонних соглашений.

В Республике Узбекистан реализуются широкомасштабные реформы, направленные на обеспечение верховенства закона посредством эффективного использования возможностей нормотворческой деятельности,

---

[1] URL: https://www.datensicherheit.de/2024-2025-cyber-attack-companies-14-seconds (мурожаат вақти: 10.03.2026).
[2] URL: https://cybermap.kaspersky.com/ru/stats (мурожаат вақти: 10.03.2026).
[3] URL: https://www.cenlanow.com/business/press-releases/ein-presswire/674883055/cybercrime-damages-to-cost-the-world-9-5-trillion-usd-in-2024/ (мурожаат вақти: 10.03.2026).
[4] URL: https://www.statista.com/forecasts/1280009/cost-cybercrime-worldwide#:~:text=The%20global%20cost%20of%20cybercrime,trillion%20U.S.%20dollars%20in%202022 (мурожаат вақти: 10.03.2026).
[5] URL: https://www.weforum.org/agenda/2019/12/corruption-cost-5-percent-global-gdp/ (мурожаат вақти: 10.03.2026).

развитие прозрачной рыночной экономики, основанной на добросовестной конкуренции, а также построение демократического государства, свободного от коррупции. В частности, за последние годы принято около 600 законодательных актов, налажена системная работа по внедрению в обществе, особенно среди государственных служащих, «вакцины честности». В данном направлении приняты специальные законы, организована деятельность специализированных структур и созданы механизмы предупреждения взяточничества. Вместе с тем нельзя утверждать, что в рамках данного процесса в достаточной степени охвачены вопросы противодействия преступлениям, связанным со взяточничеством, совершаемым с использованием информационно-коммуникационных технологий. Несмотря на рост числа преступлений, связанных со взяточничеством, совершаемых посредством сети Интернет, социальных сетей, электронных платёжных средств, информационных систем и иной телекоммуникационной инфраструктуры, механизм применения мер уголовно-правового воздействия в отношении указанных деяний до настоящего времени не сформирован в полной мере. Примечательно, что в 2019-2024 годах количество преступлений, предусмотренных статьёй 210 Уголовного кодекса («Получение взятки»), увеличилось в 52,8 раза, а преступлений, предусмотренных статьёй 211 Уголовного кодекса («Дача взятки»), – в 43,6 раза. Только в 2024 году в 7 случаях получения взятки предмет взятки передавался посредством электронного платёжного средства, однако в связи со сложностью процессов, связанных с криптоактивами, значительными временными затратами на их доказывание, а также отсутствием практического влияния данных обстоятельств на квалификацию деяния и назначение наказания необходимые следственные действия проведены не были. Согласно приведённым в исследовании данным, количество преступлений, связанных со взяточничеством, совершённых с использованием информационно-коммуникационных технологий, составило 30 случаев в 2025 году и 25 случаев к указанному периоду 2026 года. Число зарегистрированных коррупционных преступлений составило соответственно 762 и 467. При сравнении полугодовых показателей в исследовании отмечается увеличение общего числа коррупционных преступлений приблизительно на 22,6 %, а числа случаев взяточничества, совершённых с использованием информационно-коммуникационных технологий, на 66,7 %. Подчёркнута необходимость обеспечения государством принципа неотвратимости наказания за эти преступления. Это свидетельствует о необходимости совершенствования уголовно-правовых мер в отношении преступлений, связанных со взяточничеством, совершаемых с использованием информационно-коммуникационных технологий, в Республике Узбекистан.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени служит реализации приоритетных задач, определённых Уголовным кодексом Республики Узбекистан (1994 год), законами Республики Узбекистан «О противодействии коррупции» (2017 год), «О кибербезопасности» (2022 год), указами и постановлениями Президента Республики Узбекистан «О мерах по эффективной организации исполнения приоритетных задач,

определённых по дальнейшему совершенствованию системы противодействия коррупции» (2025 год), «О мерах по коренному совершенствованию системы уголовного и уголовно-процессуального законодательства» (2018 год), «О мерах, направленных на дальнейшее усиление деятельности по противодействию преступлениям, совершаемым с использованием информационных технологий» (2025 год), «О мерах по дальнейшему расширению участия институтов гражданского общества в сфере противодействия коррупции и поддержке научных исследований» (2025 год), а также иными нормативными правовыми актами, регулирующими данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан I «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Следует отметить, что отдельные вопросы, связанные с темой исследования, в той или иной степени уже изучались. В частности:

исследования по данной проблематике проводились отечественными учёными: А. Аллановым, А. Анорбоевым, А. Ибодовым, А. Отажановым, А. Расулевым, Б. Ахраровым, Б. Бердиалиевым, Б. Исмаиловым, Ф. Худайкуловым, Ф. Юсуповым, И. Абдухошимовым, Ж. Мирзаевым, Ж. Умаровым, Л. Югаем, М. Ахмедовым, М. Рустамбаевым, Р. Кабуловым, Р. Ходжиевой, Р. Зуфаровым, С. Бойдедаевым, С. Эргашевым, С. Ниязовой, С. Гордеевым, В. Суннатовым, Х. Абзаловой, Е. Коленко, Ю. Олламовым и другими;

учёными стран СНГ: А. Балаевым, А. Дасаевой, А. Гаджиевой, А. Ковалем, А. Квицинией, А. Омаровым, А. Рарогом, А. Васильченко, Б. Бойсовым, Б. Комаровым, Б. Сидировым, Б. Волженкиным, И. Клепицким, М. Лепихиным, Н. Голубых, О. Безруковой, О. Качмазовым, П. Никоновым, П. Яни, Р. Шараповым, В. Кириченко, В. Мельниковой, В. Ровнейко и другими;

зарубежными учёными: Б. Кливинком, Д. С. Уоллом, И. Карром, К. Вербахом, М. Л. Фетерисом, М. Леви, М. Питом, М. К. Стивенсоном, Н. Кристином, О. Керром, П. Де Филиппи, П. Готтшальком, П. Грабоски, Р. Андерсоном, Р. Греем, Р. Клитгаардом, С. У. Бреннером, С. Мейклджоном, С. Роуз-Аккерман, С. К. Зиглидопулосом, У. Зибером и другими.

В Республике Узбекистан современные возможности информационно-коммуникационных технологий, а также особенности преступлений, связанных со взяточничеством, совершаемых с использованием этих технологий, до настоящего времени не получили комплексного правового и научного исследования.

Связь темы диссертации с планами научно-исследовательских работ научно-исследовательского учреждения, в котором выполняется диссертация. Тема диссертации выполнена в соответствии с планом научно-

исследовательских работ Научно-исследовательского института криминологии Республики Узбекистан в рамках научного проекта «Научно-практическое исследование противодействия коррупции».

Целью исследования является разработка предложений и рекомендаций, направленных на совершенствование уголовно-правовых мер противодействия взяточничеству, совершаемому с использованием информационно-коммуникационных технологий.

Задачи исследования:

осуществить теоретико-правовой анализ преступлений, связанных со взяточничеством, совершаемых с использованием информационно-коммуникационных технологий;

разработать уголовно-правовую характеристику преступлений, связанных со взяточничеством, совершаемых с использованием информационно-коммуникационных технологий;

определить перспективы совершенствования назначения наказания за преступления, связанные со взяточничеством, совершаемые с использованием информационно-коммуникационных технологий, а также их профилактики.

Объектом исследования являются общественные отношения, возникающие в связи с применением уголовно-правовых мер в отношении взяточничества, совершаемого с использованием информационно-коммуникационных технологий.

